PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

5/2025

Bosh muharrir:
Karimova E'zozxon Gapirjonovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(bosh muharrir o'rinbosari)

Tahrir hay'ati:
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Shaxzoda
Djurayev Dusmurod
Ibragimova Gulnora
Kamilova Nodira
Quronov Muhammad
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Nurmatov Abdumannop
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xaydarov Mamat
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

Muassis – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-may-dagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

© "Pedagogika" jurnali, 2025

PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND METHODICAL JOURNAL

5/2025

CHIEF EDITOR
Karimova E'zozxon Gapirjonovna

Maxmudov Abduxalim Xamidovich
(deputy editor-in-chief)

EDITORIAL BOARD:
Djurayev Risbay
Ibraimov Xolboy
Abdullayeva Shaxzoda
Djurayev Dusmurod
Ibragimova Gulnora
Kamilova Nodira
Quronov Muhammad
Madjidova Dildora
Medetova Raushan
Muslimov Narzulla
Nurmatov Abdumannop
Safarova Roxat
Tojiboyeva Xilolaxon
Xaydarov Mamat
Xakimova Muxabbat
Xodjayev Begzod

The founder: National pedagogical university of Uzbekistan named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA

SIYOSIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TOLERANTLIKNING IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI

Karimova E'zozxon Gapirjonovna, *sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tolerantlik tushunchasining siyosiy barqarorlikka ko'rsatadigan ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Unda tolerantlik fuqarolar o'rtasida o'zaro murosa, bag'rikenglik, muloqot madaniyati va ijtimoiy hamjihatlikni shakllantiruvchi asosiy qadriyat sifatida qaraladi. Shuningdek, uning siyosiy tizim barqarorligi, fuqarolik jamiyati institutlari rivoji va demokratik jarayonlarni mustahkamlashdagi o'rni ilmiy asoslar va amaliy misollar yordamida yoritib beriladi. Muallif tomonidan tolerantlikning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar barqarorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida ahamiyati asoslab beriladi hamda uni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar taklif etiladi.

Tayanch so'zlar: *tolerantlik, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy murosa, bag'rikenglik, siyosiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy hamjihatlik, demokratik jarayonlar.*

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

Каримова Эзозхон Гапиржоновна,
кандидат социологических наук, доцент

Аннотация. В данной статье подробно проанализировано влияние понятия толерантности на политическую стабильность. Толерантность рассматривается как ключевая ценность, формирующая взаимное согласие, терпимость, культуру диалога и социальную солидарность среди граждан. Особое внимание уделено её роли в укреплении стабильности политической системы, развитии институтов гражданского общества и поддержке демократических процессов. На основе научных аргументов и практических примеров обоснована значимость толерантности как фактора, обеспечивающего устойчивость социально-политических процессов, а также предложены рекомендации по её развитию.

Ключевые слова: *толерантность, политическая стабильность, социальное согласие, терпимость, политическая культура, гражданское общество, социальная солидарность, демократические процессы.*

SOCIO-POLITICAL SIGNIFICANCE OF TOLERANCE IN FORMING POLITICAL STABILITY

Karimova E'zozkhon Gapirjonovna,
candidate of sociology, associate professor

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the impact of the concept of tolerance on political stability. Tolerance is viewed as a fundamental value that fosters mutual understanding, acceptance, a culture of dialogue, and social cohesion among citizens. The study highlights its role in strengthening the stability of the political system, advancing civil society institutions, and supporting democratic processes. Drawing on both theoretical arguments and practical examples, the author substantiates the importance of tolerance as a factor ensuring the sustainability of socio-political processes and offers recommendations for its promotion.

Key words: *tolerance, political stability, social consensus, acceptance, political culture, civil society, social cohesion, democratic processes.*

Kirish. Jahonda bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar davrida har bir mamlakat uchun siyosiy barqarorlikni ta'minlash eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda tolerantlik – jamiyat a'zolari, insoniyat o'rtasida o'zaro hurmat, bag'rikenglik, murosa va muloqotni ta'minlovchi muhim siyosiy-axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday demokratlashuv jarayonida siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun jamiyatda tolerant muhitni shakllantirish zarur bo'ladi. Tolerantlikning siyosiy va ijtimoiy jarayonlardagi rolini o'rganish, uning siyosiy barqarorlikni shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslash muhim hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilash zarur: tolerantlik tushunchasining siyosiy-sotsiologik mazmunini tahlil qilish; siyosiy barqarorlik va tolerantlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash; O'zbekistondagi amaldagi tolerantlik siyosatini o'rganish; zamonaviy global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kontekstida tolerantlikning rolini baholash. Siyosiy barqarorlikni shakllantirishda tolerantlikning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati bo'yicha turli yondashuvlar J.Rolz, S.Lipset, Yu.Xabermas, A.Turen, T.Parsons, H.Arendt kabi mutafakkirlarning siyosiy madaniyat, murosa, fuqarolik jamiyati va tolerantlik borasidagi nazariy qarashlari o'rganildi. Shuningdek, YuNESKO, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tolerantlik bo'yicha qabul qilingan konseptual hujjatlar tahlil qilindi.

Asosiy qism. Siyosiy barqarorlik – har bir davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishining, inson huquqlari va demokratik qadriyatlarning kafolati sanaladi. Bunday barqarorlikka erishishda tolerantlikning o'rni beqiyosdir. Zero, u jamiyatda o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantiradi, etnik, diniy va madaniy xilma-xillik sharoitida tinch-totuv yashashni ta'minlaydi [2]. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning nazariy va amaliy jihatini yanada chuqurroq tadqiq etish barcha olim va amaliyotchilarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo etish va ijtimoiy-siyosiy tizimning yangilanishida tolerantlikning o'rnini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq etish, uni siyosiy zarurat va madaniyat me'yori sifatida tahlil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tolerantlikga ta'rif beradigan bo'lsa, tolerantlik (lot. tolerantia – bag'rikenglik, sabr-toqat) – boshqalarning fikrlari, ishonchlari va madaniy farqlariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish qobiliyatidir. U demokratik jamiyatlarda siyosiy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi [4]. Siyosiy barqarorlik esa, jamiyatda hokimiyat institutlarining samarali faoliyat yuritishi, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi va umummilliy murosa sharoitida davlatni rivojlantirish imkonini beradi [3].

Tolerantlik – turli ijtimoiy guruhlar, millatlar, dinlar va siyosiy qarashlarga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida tinch-totuv yashash, o'zaro hurmat va tushunish madaniyatini yuksaltiruvchi mezondir. U orqali jamiyatda ixtiloflarning keskinlashuvi oldi olinadi, ziddiyatlar tinch yo'l bilan hal etiladi. Tolerantlik va siyosiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik shundan iboratki, ya'ni siyosiy barqarorlik davlat hokimiyatining tizimli ishlashini, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini, institutlar faoliyatining muvozanatda bo'lishini ta'minlovchi holatdir, ya'ni tolerant muhitda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida ziddiyatlar kamayadi, siyosiy raqobat konstruktiv asosda yuritiladi, jamiyatda ishonch va hamjihatlik mustahkamlanadi. Agar jamiyatda tolerantlik darajasi past bo'lsa, siyosiy barqarorlik ham xavf ostida qoladi. Zamonaviy dunyoda global migratsiya, internet va axborot oqimlari orqali madaniyatlar o'zaro ta'sirlashmoqda. Bu yangi voqelikda tolerantlik nafaqat axloqiy, balki siyosiy zaruratga aylanmoqda. YuNESKO tomonidan qabul qilingan Tolerantlik prinsiplari deklaratsiyasida ta'kidlanishicha, «Tolerantlik – barqaror tinchlik va demokratiyaning asosiy shartidir» [5]. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tolerantlikning ahamiyati shundan iboratki, tolerantlik nafaqat shaxslararo munosabatlarda, balki siyosiy institutlar, partiyalar, OAV va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi aloqalarda ham muhim o'rin tutadi. Ushbu omil: ijtimoiy murosa muhitini yaratadi; etnik va konfessional ziddiyatlarning oldini oladi; siyosiy plyuralizm va fikrlar xilma-xilligini ta'minlaydi; davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Masalan, demokratik jamiyatlarda turli siyosiy partiyalar va fuqarolik

institutlari o‘rtasidagi tolerant munosabatlar siyosiy raqobatni konstruktiv asosda yuritishga xizmat qiladi. Tolerantlik ijtimoiy tuzum xarakteriga ko‘ra sinfiy yo‘nalishga ega bo‘lishi, umuminsoniy tamoyillar qaror topgan jamiyatda esa sinfiy, milliy, irqiy yoki guruhiy chegaralanishlardan holi amal qilishi ham mumkin. Tolerantlik – umuminsoniy qadriyatlarning adolat, ozodlik, hurmat, tenglik, hamkorlik, tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, vatanparvarlik, mehribonlik, sadoqatlilik singari tushunchalari bilan bevosita bog‘liqlikda bo‘lib, ularning birortasi mazmunida muvozanat buzilgudek bo‘lsa, tolerantlik mehrsizlikka, egoizmga aylanib ketadi.

L.J.Xemmeni (AQShdagi Gettisberg universiteti professori) tolerantlikni o‘ziga xos ijobiy ma‘naviy xislat deb hisoblaydi. Biroq boshqalarni tushunish, anglash istagi favqulodda qiyinchiliklarni paydo qilishi va jiddiy muammoga aylanishi mumkin. M.D.Kultaeva (Xarkov) «Ijtimoiy davlat va tolerantlik» [6] maqolasida mohiyatan tolerant bo‘lgan ijtimoiy davlatning tipologik va funksional xususiyatlarini aniqlashtirib berdi. Bunday davlatning mazmun-mohiyati va maqsadi, asosiy inson huquqlarini amalga oshirish va shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan turmush darajasini kafolatlashdan iborat. Bunday kafolatlar jamiyatda individualizm va birodarlik singari bir-biriga tamomila zid bo‘lgan ko‘rsatma va turmush yo‘nalishlarining birga mavjud bo‘lishini nazarda tutadi. Ijtimoiy birdamlik muammosi posttotalitar jamiyatdagi manfaatlar to‘qnashuvlarini ko‘rib chiqish vaqtida chetda qolib ketmasligi lozim. Ijtimoiy birdamlikni shaxsiyatni bo‘g‘uvchi sotsialistik namunadagi jamoachilik (kollektivizm) bilan adashtirmaslik lozim. Chin ma’nodagi ijtimoiy birdamlik, avvalambor, nokorporativ yondashuv, har bir fuqaroning kamol topishiga ko‘maklashuv orqali ifodalanadi. Shu sababli ijtimoiy davlatga xos bo‘lgan ochiq oshkoralik va universallik kabi tamoyillar bilan bir qatorda tolerantlik ham muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Davlat tamoyili maqomida e’tirof etilgan tolerantlik, ijtimoiy va madaniy rang-baranglik konstruktiv salohiyatini ochib beradi hamda siyosat va insonlararo munosabatlarning oliyjanoblashuviga ko‘maklashadi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi jadvalda, tolerantlik belgilariga asoslanib, tolerantlikning turlariga mos nomlar berishga harakat qildik.

1-jadval

Tolerantlikning turlari bo‘yicha nomlanishi

Ijtimoiy ong turlari	Tolerantlik turlari	Tolerantlik belgilari
Mifologik	“Yashirin” tolerantlik	“Tolerantlik hali konseptual jihatdan anglab yetilmagan. Jamiyat falsafiy tafakkur spesifikasiga murosasozlik bilan qaraydi, chunki u hozircha mifik ong obrazlarining buzilishiga olib kelmaydi, biroq pirovard natijada falsafani bosib qo‘yish tendensiyasi yuzaga keladi...”
Diniy	“Paradoksal” tolerantlik	“Monoteizm, ya’ni absolyut e’tiqod tizimida tolerantlikning mavjud bo‘lishi mumkin emas, chunki u absolyutlikni yemiradi, biroq diniy murosasizlikka asoslangan diniy urushlar pirovard natijada tolerantlikni yuzaga keltirdi...”
Sekulyar (din ta’siridan chiqqan)	“Madaniy” tolerantlik	Sekulyar jamiyatda haqiqiy umuminsoniy ahloqiy tamoyillar tan olinishi natijasida tolerantlik reallikka aylanadi. Bu asosda endi “o‘zga”ga nisbatan hurmat nazari bilan qarash, yashash tarzi, kasbiy faoliyat, madaniy an’analar keltirib chiqargan etnik va milliy o‘ziga xosliklar hamda ijtimoiy qarashlardagi farqlarni kabul qilish, imkoniyati mavjud. Bu o‘rinda endi tolerantlik yuksak ma’naviy va ahloqiy madaniyat natijasidir
Ilmiy-ijtimoiy	Ilmiy mentallik sohasidagi murosasozlik	Ilm sohasidagi o‘zga fikrlarga murosasozlik masala hali tugal aniqlanmagan o‘rinda mumkindir; inkor qilib bo‘lmaydigan isbotlarga asoslangan nazariy haqiqat tan olinmog‘i lozim

2-jadval

Tolerantlikning ehtimoldagi to‘rtta modeli (ularga amalda mavjud bo‘lgan va hozirda ham amal qilayotgan falsafiy konsepsiyalar mos keladi)

Tolerantlik modellari	Tolerantlik modellarining o‘ziga xos xususiyatlari
Tolerantlik befarqlik sifatida	“Bunday ma’noda tushunilgan tolerantlik turli qarashlar va amaliyotlarning mavjudligiga befarqlik pozitsiyasida turadi, chunki bular jamiyat ish olib borayotgan asosiy muammolar qarshisida pastroq, yomonroq deb olib qaraladi”
Tolerantlik o‘zaro hamfikrlik imkoniyatining yo‘qligi sifatida	Bu tushunchaga ko‘ra u yoki bu madaniyatning diniy, metafizik qarashlari, o‘ziga xos qadriyatlari inson faoliyati va jamiyat taraqqiyoti uchun qandaydir ikkinchi darajali narsalar emas. Shuning uchun men o‘zgalarni hurmat qilaman, biroq shuning bilan birga tushuna olmayman hamda aloqaga kirishmayman
Tolerantlik ko‘ngilchanlik, marhamat ko‘rsatish sifatida	“Bu o‘rinda tolerantlik o‘zgalarning kamchiliklariga nisbatan birmuncha jirkanish hissi bilan qo‘shilib ketgan ko‘ngilchanlik sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, men asossizligini ko‘rib turgan va ko‘rsata oladigan o‘zga qarashlarga chidashga majburman, biroq bunday kishi bilan hal qiluvchi baxsga kirishish befoyda deb bilaman”
Tolerantlik o‘z tajribasini kengaytirish va hal qiluvchi dialog sifatida	“Bu o‘rinda tolerantlik o‘zga hurmat va shuning bilan birga hal qiluvchi dialog natijasida qarashlardagi o‘zaro o‘zgarishlarga yo‘l quyishda namoyon bo‘ladi”

Yuqorida sanab o‘tilgan tolerantlik modellaridan faqat oxirgisi, mahsuldor va hozirgi zamon vaziyatiga mos ko‘rinadi. Ya’ni «...tolerantlik o‘zganing fikriga manfaatdor munosabatni ko‘zda tutadi, aqlning dunyoni boshqacha his qilish va idrok etishga da‘vat etuvchi intilishini, bu fikr o‘zgacha, o‘zinikiga nimasi bilandir o‘xshamas bo‘lgani uchun ham, kuchaytiradi». Globallashuv sharoitida tolerantlikning roli o‘rganilganda, global dunyoda odamlar ko‘proq migratsiya, axborot va madaniy almashinuv jarayonlariga duch kelishmoqda. Bu esa, yangi ijtimoiy voqelikni – ko‘p madaniyatli, ko‘p millatli, ko‘p dindosh jamiyatlarni shakllantirmoqda. Shunday sharoitda tolerantlik – nafaqat insoniy qadriyat, balki siyosiy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda tolerantlik siyosatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan: millatlararo va dinlararo totuvlikni ta’minlash borasida huquqiy va institutsional asoslar yaratilgan; fuqarolar o‘rtasida bag‘rikenglikni targ‘ib qiluvchi dasturlar amalga oshirilmoqda; etnik guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi kengashlar, madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda; bu holatlar mamlakatda siyosiy barqarorlikning saqlanishiga va jamiyatda ijtimoiy murosa muhitining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Bag‘rikenglik siyosiy barqarorlik poydevori sifatida O‘zbekiston tajribasi juda muhim hisoblanadi. O‘zbekistonda tolerantlik masalasi davlat siyosati darajasida muhim o‘rin egallamoqda. Mamlakatda 130 dan ortiq millat va etnik guruh vakillari, turli dinlarga e’tiqod qiluvchi jamoalar tinch-totuv yashab kelmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, «boshqacha fikr va qarashlarga bag‘rikeng munosabatda bo‘lish, fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hurmatni qaror toptirish – jamiyat barqarorligining muhim kafolatidir» [1]. Davlat tomonidan qabul qilingan «Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati konsepsiyasi» va tegishli qonunlar bag‘rikenglik muhitini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Etnomadaniy markazlar, diniy tashkilotlar, «Do‘stlik uylari» singari institutlar faoliyati tolerantlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Xulosa. Tolerantlik – jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muvozanat va barqarorlikni ta’minlashning asosiy omilidir, ya’ni tolerantlik – jamiyatning siyosiy barqarorligi va ijtimoiy

taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. U orqali fuqarolar o‘rtasida o‘zaro ishonch va murosa, hurmat va hamjihatlik muhiti yuzaga keladi, ixtiloflar tinch yo‘l bilan hal etiladi, siyosiy raqobat sivilizatsiyalashgan tarzda amalga oshadi. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tolerantlik madaniyatini shakllantirish, barqaror jamiyat qurishning muhim shartidir. Ayniqsa, ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyatlarda tolerantlik siyosati strategik ahamiyatga ega bo‘lib, davlat barqarorligining uzviy qismiga aylanadi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон - инсон қадри учун. - Т.: Ўзбекистон, 2021.

2. Халқ Д. Толерантлик - жамият барқарорлиги асоси. - Т.: Илм-Фарғона, 2021.

3. Lipset, S.M. Some social requisites of democracy: economic development and political legitimacy // American political science review, 53(1), 69-105. https://doi.org/10.2307/1951731

4. Rawls, J. Political liberalism. Columbia University Press.

5. UNESCO. Declaration of principles on tolerance. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000118237

6. Человек: образ и сущность. Толерантность и архитектоника эмоций. - М.: РАН, 1998.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA

Karimova E'.G.
Siyosiy barqarorlikni shakllantirishda tolerantlikning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.....3
Dilova N.G.
Xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash strategiyasi.....8
Клычева З.П.
Психологический метод изучения межличностных отношений школьников.....12
Kurbanov G.A.
O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari.....16
Jabbarov Z.R.
Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalari.....18
Ilyasov B.Q.
Aviatsiya mutaxassislarining kasbiy tayyrgarligi – havo transportida xavfsizlikning muhim tarkibiy qiami sifatida.....19
Saidova G.H.
Zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirishda akmeoligik positsiyaning o'rni.....20
Aralov S.A.
Pedagogik fasilitatsiyada asosida talabalarning kasbiy rivojlanishi.....22
Turdiyeva N.S.
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining o'rni.....26
Ergasheva R.A.
Ingliz tili o'qituvchilarining professional rivojlanish darajasiga qo'yilgan talablar.....28
Musayeva A.K.
Talabalarning rus tilidan kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi.....32
Xojiyeva N.B.
«Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fani asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish strategiyasi.....42
Saidova Z.G.
Globallashuv sharoitida rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta'lim tizimiga integrativ yondashuvning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish.....48
Shukurova S.I.
«Tibbiy radiologiya» fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning didaktik jihatlari 52
Do'schonov Sh.Yo.
To'garak mashg'ulotlarida ijodiy loyhalar orqali o'qitishning ilmiy-metodik ahamiyati.....57
Abdujabborova T.U.
Oliy ta'lim talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tizimli yondashuv integratsiyasi.....60
Turdiboyev I.X.
Kimyo fanini o'qitishda fanlararo integratsiyaning zaruriyati.....72
Jalilova N.T.
Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy jarayonlarda qo'llaniladigan didaktik qadriyatlrni tanlash hamda tasniflash ko'nikmalarini rivojlantirish.....76
Ashurova S.Yu.
Kompetenli-modulli yondashuv asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.....79
Karimova N.N.
Kasbiy-pedagogik kompetentlikni uzluksiz rivojlantitishda raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari – Smart didactics.....82
Ishonqulov M.U.
Olimlik mashaqqati va mas'uliyati haqida o'ylarim.....54
Jumasheva G.X.,Jumasheva Z.R.
Oila tarbiyasining milliy xususiyatlari va ularning o'ziga xos jihatlari.....56
Tulenova G.Zh.
Increase of human capital and increase of intellectual activities as an important element of active state policy of Uzbekistan.....62
Азимова М.Х.
Толерантность как составляющая структура личностной компетентности студентов.....49
Рузиева М.Д.
Педагогическая система обучения национальным ремеслам – важный фактор подготовки школьников к трудовой деятельности.....50
Raxmatova X.A.
Oliy ta'lim muassasalari hamda mahalla instituti o'rtasidagi hamkorlik tizimini takomilashtirishning ustuvor tamoyillari.....54
Maxsudov S.A.
Nodavlat ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish: Finlayandiya va Singapur tajribasi asosida tahlil.....61
Рузметова Н.В.
Формирование правовой компетентности будущих правоведов в процессе изучения английского языка.....64
Kilicheva K.
Childhood victimisation and psychopathology.....68
Ergashev B.B.
Oliy ta'lim tizimida fanlararo integrasiya asosida talabalarini raqobatbardoshligini rivojlantitish.....72
Sheydayeva A.B.
The Fejr-i Ati movement period of Turkish poetry: the beginning of innovation in poetry.....76
Sadikova Sh.A., Abdusabirovna L.A.
Integrativ yondashuv asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda pedagogning ro'li.....82
Mamarajabov Sh.E.
Oliy ta'lim muassasalari magistlarida differensiyal yondashuv asosida umumkasbiy ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....85
Xazratov F.X.
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining dasturlashga oid kompetensiyalarini tizimli-algoritmik yondashuv asosida rivojlantirish.....90
Temirov D.Sh.
Ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazoratini rivojlantirishda milliy tarbiya kontentlaridan foydalanish.....95
Xujayarova N.S.
Ta'lim jarayonida inklyuziv ta'lim ijtimoiy fenomen sifatida.....98
Pulatova Z.
Ijtimoiy faollik tushunchasi va uning nazariy masalalari.....102
Tursunova U.
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy jihatdan muhim muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari....102
Anorboyev A.A.
Bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirish masalalari.....111
Qandaharov Q.H.
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish.....116
Hamdamova N.M.
Bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy metodik tizimini loyihalashtirish.....119
Hamdamova S.R.
«Oila pedagogikasi» fani asosida talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan aksiologik yondashuv mazmuni.....123
Aripova G.Sh., Raxmonova M.U., Soliyeva A.I.
Oliy ta'lim tizimida blender learning ta'lim tizimini qo'llash mexanizmlari.....129
Xamdamova M.Z.
Elektron ta'lim berish jarayonida milliy qadriyatlar asosida o'qituvchilarning insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish tamoyillari.....133
Oripova R.I.
Pedagogik tajribalarda o'quvchi-yoshlarning ma'naviy-axloqiy va o'z-o'zini tarbiyalash masalalari....139
Xonimqulov A.R.
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

NATIONAL PEDAGOGICAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER NIZAMI

PEDAGOGICA
(scientific-theoretical and methodical journal)
№ 5
МИНИСТЕРСТВО ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА им. НИЗАМИ
ПЕДАГОГИКА
(научно-теоретический и методический журнал)
№ 5

"Pedagogika" jurnali "Pedagogik ta'lim" jurnalining vorisidir.

Mas'ul kotib – R.M.Medetova
Muharrirlar – M.X.Azizova, X.M.Tojiboyeva
Sahifalovchi – S.Pirmatov
Nashr ko'rsatkichlari:
Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077
Jurnal 2000-yildan boshlab chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.
2025-yil 20-iyun bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.
Adadi – 92 nusxa. 21 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.
Bichimi 70x100$^{1}/_{16}$ "Roboto" garniturasi.
Nizomiy nomidagi TDPU "Tahrir va nash" bo'limida bosildi.
100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko'chasi, 27-uy.